



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyev vich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР.....	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Kojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ.....	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJIY TAJRIBASI	141
<i>Xayitov Rustam Burxonovich</i>	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
<i>Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li</i>	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
<i>Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich</i>	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
<i>Ibodova Dilsora Ibo dovna</i>	
INVESTITSION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
<i>Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista</i>	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
<i>Xalimbetov Farxad Bagibekovich</i>	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
<i>Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li</i>	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
<i>Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи</i>	
SUN'YIY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI.....	186
<i>Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi</i>	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
<i>Eshboyev Ulug'bek Farxodovich</i>	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
<i>Zufarova Zilola Raxim qizi</i>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
<i>Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich</i>	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI.....	231
<i>Saidov Dilshodbek Razzakovich</i>	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	236
<i>Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li</i>	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
<i>Jumanova Zilola Tuychiyevna</i>	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
<i>X.R. Aliyev</i>	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
<i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILYIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
<i>Umarova Xusnora Dilmurod qizi</i>	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI	269
Quliyev Begimqul Melikovich	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	276
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
АГРОЭКОТУРИЗМ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ СЕЛЬСКИХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА.....	281
Хайдаров Ойбек Зоирович	
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON SERVICE QUALITY AND CUSTOMER SATISFACTION IN THE HOUSEHOLD SERVICE SECTOR: EMPIRICAL EVIDENCE FROM SAMARKAND REGION	287
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Yuldosheva Zulfizar Sayfullayevna	
DEVELOPMENT OF INTERACTIVE MODELING METHODS FOR THE SYNTHESIS OF INTELLIGENT CONTROL SYSTEMS FOR TECHNICAL OBJECTS IN THE DIGITAL ECONOMY	293
Mamutova Aygul Kalmurzaevna	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH MASALALARI.....	298
Abdurazakova Nasiba Sultanovna	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI.....	303
Tashmuxeimova Yayra Atxamovna	
ZAMONAVIY AXBOROT TIZIMLARI ORQALI SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL	308
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
TA'LIM MIGRATSIYASI VA INTEGRATSIYA KO'RSATKICHLARINI STATISTIK TAHLILI: YEVROPA ITTIFOQI (SIRIUS) TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	314
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	
HUDUDIY SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI KO'P OMILLI STATISTIK TAHLIL ETISHDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO'LLARI	319
Tag'oyev Feruz Yorqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI HUDUDIY INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA TAHLIL VA TAVSIYALAR.....	326
Egamberdiev Abbosxon Sherali o'g'li	
KICHIK BIZNESDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	331
Nurullayev Baxrom Botirovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH.....	337
Ne'matova Mavsuma	
ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA ISLOMIY MOLIYA VA NOBANK KREDIT TASHKIOTLARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI	341
Galatov Abbos Alibekovich, Xalilov Nurullo Xamidillayevich	
IQTISODIY FAOLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT FISKAL SIYOSATI HOLATI TAHLILI.....	346
Xudayberginova Nigora Turgunbayevna	
MEHNATGA HAQ TO'LAHNING MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLIHNING ASOSIY VAZIFALARI	356
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
"CRADLE TO CRADLE" VA "CRADLE TO GRAVE" KONSEPSIYALARINING UMUMIY VA XUSUSIY JIHATLARI	360
Sodikov Zokir Rustamovich	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	366
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI VA MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA'SIRI: KEYNESIAN YONDASHUV NUQTAI NAZARIDAN.....	370
Shermatov G'ofurjon G'ulamovich	
QURILISH KORXONALARIDA INQIROZGA QARSHI BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (ROSSIYA TAJRIBASI)	377
O'rinboev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA YASHIL XIZMATLAR SEKTORINING TRANSFORMATSIYASI.....	385
Aliqulova Laylo Ziyadin qizi	
VIRTUAL TA'LIM MUHITI ORQALI TALABALARNING MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	390
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH KO'RSATKICHLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHTIRISH	395
Qo'ziboyev Umarbek Ulug'bekovich	
ОЦЕНКА СТОИМОСТИ И РИСКОВ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ (FDI)	400
Бахтиярова Дильноза Мадминджановна	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING AHAMIYATI.....	407
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
O'ZBEKISTONDA INTEGRATSIYALASHGAN YASHIL MOLIYALASHTIRISH ARHITEKTURASI: KONSEPTUAL MODEL VA AMALIY TAKLIFLAR.....	412
Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich	
BANK TIZIMI FAOLIYATI MISOLIDA MOLIYAVIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA KORXONALAR LIKVIDLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	419
Iminova Nurjahan Qodirjon qizi, Karimov Sardorbek Shuxratjon o'g'li	
BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH BOJXONA REJIMINING SANOAT RIVOJI VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI O'RNI	423
Baxtiyor Abduganiyev, Nodira Saidbaxromova	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В СТАНОВЛЕНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	427
Li Kristina Alekseyevna, Элназарова Шарифа Исроиловна, Эшпулатов Достонбек Боходир огли	
TOVAR-XOMASHYO BIRJASIDA SAVDO TURLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING BOZOR SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	432
Xudayberdiyev Kamoliddin Ustemirovich	
THE ROLE OF CORPORATE STRUCTURES IN THE DEVELOPMENT OF GLOBAL FINANCIAL RELATIONS.....	438
Kurbaniyazov Shakhzodbek Karimovich	
BANKLARNI MODERNIZATSIYA VA TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASH SAMARADORLIGINI TA'MINLASH VA UNI OSHIRISHNING ASOSIY YO'LLARI	442
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI MARKETING: O'ZBEKISTON SHAROITIDA SAMARADORLIK VA INTEGRATSIYA MODELLARI	446
Kamilov Farxod Shamilevich	
TASHQI SAVDODA EKSPORTNING MAKROIQTISODIY AHAMIYATI	453
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	



TASHQI SAVDODA EKSPORTNING MAKROIQTISODIY AHAMIYATI

Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Email: Shahzodbek.abduvaliyev1998@gmail.com

ORCID: [0009-0006-7933-8507](https://orcid.org/0009-0006-7933-8507)

Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li

Angren universiteti assistenti

ORCID: [0009-0004-2905-398X](https://orcid.org/0009-0004-2905-398X)

Baymanova Mavlyuda Djurayevna

Angren universiteti katta o'qituvchisi

ORCID: [0009-0001-1673-2965](https://orcid.org/0009-0001-1673-2965)

Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna

Angren universiteti o'qituvchisi

ORCID: [0009-0008-4597-100X](https://orcid.org/0009-0008-4597-100X)

Aipova Iroda Ikramovna

Angren universiteti o'qituvchisi

ORCID: [0009-0006-9951-351X](https://orcid.org/0009-0006-9951-351X)

Annotatsiya. Ushbu maqolada tashqi savdo tizimida eksportning makroiqtisodiy ahamiyati keng tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida eksport hajmining yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishiga, to'lov balansi barqarorligiga, valyuta tushumlari shakllanishiga hamda bandlik darajasiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, eksportni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalari yoritib beriladi. Maqolada eksport siyosatining makroiqtisodiy muvozanatga ta'siri hamda global bozor sharoitida eksport salohiyatini oshirish yo'llari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: eksport, tashqi savdo, makroiqtisodiyot, yalpi ichki mahsulot (YaIM), to'lov balansi, valyuta tushumlari, iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik, milliy iqtisodiyot, eksport siyosati.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the macroeconomic significance of exports within the foreign trade system. The study examines the impact of export volumes on gross domestic product (GDP) growth, balance of payments stability, foreign currency inflows, and employment levels. In addition, the paper highlights the role of export development in enhancing national economic competitiveness, increasing production efficiency, and ensuring economic stability. The article substantiates the influence of export policy on macroeconomic equilibrium and identifies ways to strengthen export potential in the context of global market conditions.

Key words: export, foreign trade, macroeconomics, gross domestic product (GDP), balance of payments, foreign currency inflows, economic growth, competitiveness, national economy, export policy.

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется макроэкономическое значение экспорта в системе внешней торговли. В ходе исследования изучается влияние объёма экспорта на рост валового внутреннего продукта (ВВП), устойчивость платёжного баланса, формирование валютных поступлений и уровень занятости. Также освещаются вопросы повышения конкурентоспособности национальной экономики, усиления производственной эффективности и обеспечения экономической стабильности за счёт развития экспорта. В статье обосновано влияние экспортной политики на макроэкономическое равновесие, а также определены пути увеличения экспортного потенциала в условиях глобального рынка.

Ключевые слова: экспорт, внешняя торговля, макроэкономика, валовой внутренний продукт (ВВП), платёжный баланс, валютные поступления, экономический рост, конкурентоспособность, национальная экономика, экспортная политика.



KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida tashqi savdo milliy iqtisodiyot rivojlanishining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xususan, eksport faoliyati mamlakatning jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv darajasini belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan sanaladi. Eksport nafaqat ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning tashqi bozorlarga chiqarilishini ta'minlaydi, balki makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o'sish va valyuta tushumlarining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ham eksportning makroiqtisodiy ahamiyatini chuqur tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyoti tajribasi shuni ko'rsatadiki, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat yuritgan davlatlar yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishgan. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda eksport hajmining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi o'rtacha 45–55 foizni tashkil etadi. Ayrim kichik ochiq iqtisodiyotlarda bu ko'rsatkich 70 foizdan ham yuqori. Bu holat eksportning iqtisodiy faollikni rag'batlantirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va bandlikni oshirishdagi rolini yaqqol namoyon etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eksport hajmining 1 foizga o'sishi o'rtacha hisobda YalMning 0,3–0,4 foizga oshishiga olib keladi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Eksport va uning makroiqtisodiy ahamiyati masalasi iqtisodiy nazariya va amaliy tadqiqotlarda uzoq yillardan buyon muhim o'rin egallab kelmoqda. Klassik iqtisodiy maktab vakillari tashqi savdoni milliy boylik manbai sifatida talqin qilgan bo'lsalar, keyingi davr iqtisodchilari eksportni iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida baholaganlar. Shu jihatdan eksport masalasi bo'yicha shakllangan adabiyotlar nazariy va empirik yondashuvlarga bo'linadi.

Klassik iqtisodchilar, jumladan A. Smit va D. Rikardo asarlarida tashqi savdo va eksport mutlaq hamda nisbiy ustunlik nazariyalari orqali izohlangan. Ularning qarashlariga ko'ra, mamlakatlar o'zida nisbatan samarali ishlab chiqariladigan mahsulotlarni eksport qilish orqali umumiy farovonlikni oshiradi. Bu yondashuv eksportning resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish ixtisoslashuvini kuchaytirishdagi rolini nazariy jihatdan asoslab berdi [5].

Neoklassik iqtisodiy adabiyotlarda eksport omillar taqsimoti va narxlar mexanizmi orqali tushuntiriladi. Heckscher–Ohlin modeli eksportni ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasi bilan bog'laydi. Ushbu modelga ko'ra, mehnatga boy mamlakatlar mehnat sig'imi yuqori mahsulotlarni, kapitalga boy mamlakatlar esa kapital sig'imi yuqori mahsulotlarni eksport qiladi. Mazkur yondashuv eksportning tarkibiy tuzilmasi va makroiqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Keyingi davrda rivojlangan yangi savdo nazariyalari eksportning iqtisodiy o'sishga ta'sirini kengroq doirada yoritdi. Xususan, miqyos samarasi, monopol raqobat va innovatsiyalar eksport orqali tezlashishi ta'kidlandi. Ushbu tadqiqotlarda eksport qiluvchi korxonalar yuqori texnologiyalarni joriy etishga moyil bo'lishi, bu esa umumiy mehnat unumdorligining oshishiga olib kelishi qayd etilgan. Shu sababli eksport faqat savdo ko'rsatkichi emas, balki texnologik rivojlanish omili sifatida ham qaraladi [7].

Empirik tadqiqotlarda "eksportga yo'naltirilgan o'sish" (export-led growth) gipotezasi keng o'rganilgan. Mazkur gipotezaga ko'ra, eksport hajmining oshishi iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi. Ko'plab statistik tahlillar rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar misolida eksport va YalM o'rtasida ijobiy va uzoq muddatli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatgan. Ayrim tadqiqotlarda eksport o'sishi investitsiyalar hajmining ko'payishiga va bandlik darajasining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi isbotlangan [8].

Shu bilan birga, adabiyotlarda eksportning makroiqtisodiy ta'siri bir xil emasligi ham qayd etiladi. Ayrim mualliflar eksport tarkibining xomashyo yo'nalishida bo'lishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni cheklashini ta'kidlaydi. "Resurslar la'nati" konsepsiyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda xomashyo eksportiga haddan tashqari tayanish iqtisodiy diversifikatsiyani susaytirishi va makroiqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkinligi ko'rsatilgan. Shu sababli eksportning sifat jihati, ya'ni yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushi muhim omil sifatida baholanadi [9].

Zamonaviy adabiyotlarda eksportning to'lov balansi va valyuta barqarorligiga ta'siri ham keng tahlil qilinadi. Ko'plab tadqiqotlar eksport tushumlarining yetarli darajada bo'lishi tashqi qarzlarga qaramlikni kamaytirishini va milliy valyuta kursining keskin tebranishlarining oldini olishini ko'rsatadi. Ayniqsa, eksport va inflyatsiya o'rtasidagi bilvosita bog'liqlik makroiqtisodiy siyosat nuqtayi nazaridan muhim masala sifatida yoritilgan.

O'zbekiston va boshqa o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda eksportning institutsional omillarga bog'liqligi ta'kidlanadi. Bojxona tartibotlari, logistika infratuzilmasi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari eksport samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida ko'rsatilgan. Ushbu adabiyotlarda davlat eksport siyosatining izchil va maqsadli bo'lishi makroiqtisodiy natijalarga bevosita ta'sir qilishi qayd etiladi.



Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, eksportning makroiqtisodiy ahamiyati ko'p qirrali bo'lib, u iqtisodiy o'sish, bandlik, to'lov balansi, valyuta barqarorligi va raqobatbardoshlik bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, eksportning ijobiy ta'siri uning hajmi bilan bir qatorda tarkibi va institutsional muhitiga ham bog'liq ekani ilmiy tadqiqotlarda keng e'tirof etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, mantiqiy umumlashtirish va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Eksport va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik statistik tahlil va dinamik qatorlar asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida rasmiy statistik ma'lumotlar va iqtisodiy nazariya qoidalariga tayangan holda xulosalar chiqarildi. Olingan natijalar asosida eksportni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi

TAHLIL VA NATIJALAR

Eksportning makroiqtisodiy ahamiyati, avvalo, milliy daromadlar va valyuta tushumlarining shakllanishida namoyon bo'ladi. Tashqi bozorlardan olinadigan valyuta tushumlari importni moliyalashtirish, tashqi qarz majburiyatlarini bajarish hamda milliy valyuta barqarorligini ta'minlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda eksport tushumlari umumiy valyuta daromadlarining 60 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Eksport hajmining pasayishi esa to'lov balansi taqchilligining kuchayishiga va milliy valyuta kursining beqarorlashuviga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, eksport bandlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro mehnat tashkiloti hisob-kitoblariga ko'ra, eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda yaratilgan har bir ish o'rni iqtisodiyotning boshqa sohalarida qo'shimcha 1,5–2 ta ish o'rni yaratilishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, sanoat va qayta ishlash sohalarida eksportning kengayishi yuqori unumdor ish o'rinlarining ko'payishiga xizmat qiladi. Bu esa aholi daromadlarining oshishiga va ichki talabning kengayishiga olib keladi [2].

Eksportning yana bir muhim makroiqtisodiy ahamiyati — bu milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishidir. Tashqi bozorlarga chiqish korxonalarini mahsulot sifati, tannarxi va innovatsion salohiyatini doimiy ravishda takomillashtirishga majbur qiladi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi ortadi, texnologik yangilanish tezlashadi. Amaliy kuzatuvlarga ko'ra, eksport qiluvchi korxonalarda mehnat unumdorligi eksport bilan shug'ullanmaydigan korxonalariga nisbatan o'rtacha 20–30 foizga yuqori bo'ladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti misolida ham eksportning makroiqtisodiy ahamiyatini yaqqol ko'rish mumkin. So'nggi yillarda mamlakat eksport hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etib, umumiy tashqi savdo aylanmasida eksport ulushi sezilarli darajada oshdi. Eksport tarkibida sanoat mahsulotlari, rangli metallar, kimyo mahsulotlari, qishloq xo'jaligi va xizmatlar ulushi ortib bormoqda. Bu esa iqtisodiyotning xomashyo yo'nalishidan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportiga bosqichma-bosqich o'tayotganini ko'rsatadi.

Eksport tashqi savdoning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, uning makroiqtisodiy ahamiyati YaIM o'sishi, bandlik, valyuta tushumlari, to'lov balansi barqarorligi va iqtisodiy raqobatbardoshlikda namoyon bo'ladi. Shu sababli eksportni rivojlantirishga qaratilgan samarali davlat siyosatini shakllantirish va uni ilmiy asosda tahlil qilish hozirgi davrda alohida ahamiyat kasb etadi [3].

Eksportning makroiqtisodiy ahamiyati uning iqtisodiy tizimda qanday mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatishi bilan belgilanadi. Avvalo, eksport yalpi talab tarkibida muhim komponent hisoblanib, investitsiyalar va iste'mol bilan bir qatorda iqtisodiy o'sishni shakllantiradi. Ochiq iqtisodiyot sharoitida YaIM quyidagi tenglama orqali ifodalanadi: $YaIM = C + I + G + (X - M)$. Ushbu tenglamada eksport (X) hajmining ortishi, import (M) darajasi o'zgarmagan sharoitda, yalpi ichki mahsulotning bevosita oshishiga olib keladi. Shu sababli eksport iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi muhim omil sifatida qaraladi [4].

Makroiqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, eksportning o'sishi ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liqroq foydalanishga imkon yaratadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat quvvatlaridan foydalanish darajasi o'rtacha 65–70 foizni tashkil etadi. Eksport buyurtmalarining ko'payishi ushbu ko'rsatkichni 75–80 foizgacha oshirish imkonini beradi, bu esa ishlab chiqarish tannarxining pasayishiga va korxonalar rentabelligining ortishiga xizmat qiladi. Natijada davlat budjetiga soliq tushumlari ko'payadi va fiskal barqarorlik mustahkamlanadi.

Eksportning to'lov balansi barqarorligiga ta'siri alohida e'tiborga loyiq. To'lov balansining joriy hisobida eksport asosiy daromad manbai hisoblanadi. Statistik kuzatuvlarga ko'ra, eksport hajmi importdan kamida 10–15 foizga yuqori bo'lgan mamlakatlarda joriy hisob profitsiti shakllanadi. Bunday holat milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlaydi va inflyatsion bosimni kamaytiradi. Aksincha, eksport hajmining pasayishi tashqi savdo taqchilligini kuchaytirib, valyuta bozorida nomutanosibliklarni yuzaga keltiradi.

Eksport makroiqtisodiy barqarorlikka inflyatsiya kanali orqali ham ta'sir ko'rsatadi. Eksportdan olinadigan valyuta tushumlari import qilinadigan xomashyo va iste'mol tovarlari narxining keskin oshib ketishining oldini oladi. Amaliy tahlillarga ko'ra, eksport tushumlari YaIMga nisbatan 30 foizdan yuqori bo'lgan mamlakatlarda



yillik inflyatsiya darajasi o'rtacha 5–7 foiz atrofida saqlanadi. Bu esa eksportning narxlar barqarorligiga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi.

Shuningdek, eksport tarkibining diversifikatsiyalangan bo'lishi iqtisodiy xatarlarni kamaytiradi. Faqat bitta yoki ikkita xomashyo turiga tayangan eksport tizimi tashqi narxlar tebranishiga juda sezgir bo'ladi. Jahon bozorida xomashyo narxlarining 10 foizga pasayishi bunday mamlakatlarda eksport daromadlarining 6–8 foizga qisqarishiga olib keladi. Aksincha, sanoat va qayta ishlangan mahsulotlar ulushi yuqori bo'lgan eksport tuzilmasi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi va uzoq muddatli o'sishni ta'minlaydi.

Eksportning makroiqtisodiy ahamiyatini baholashda, avvalo, uning yalpi ichki mahsulot, bandlik, to'lov balansi va valyuta barqarorligiga ta'siri kompleks tarzda tahlil qilindi. Olingan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ochiq iqtisodiyot sharoitida eksport iqtisodiy o'sishning eng muhim manbalaridan biri bo'lib qolmoqda. Tahlil natijalariga ko'ra, so'nggi o'n yillikda eksport hajmi o'rtacha 5–7 foiz atrofida o'sib borgan mamlakatlarda YalM o'sish sur'atlari 4–6 foizni tashkil etgan. Bu esa eksport va iqtisodiy o'sish o'rtasida barqaror ijobiy bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Eksportning YalMga ta'siri yalpi talab mexanizmi orqali namoyon bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, eksport ulushi YalMda 30 foizdan oshgan iqtisodiyotlarda ishlab chiqarish hajmi barqarorroq bo'ladi va iqtisodiy pasayishlar kamroq kuzatiladi. Ayniqsa, sanoat va qayta ishlash mahsulotlari eksportining oshishi yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga xizmat qiladi. O'rganilgan davrda sanoat mahsulotlari eksporti 10 foizga oshgan sharoitda sanoat ishlab chiqarish hajmi o'rtacha 6–7 foizga ko'paygani aniqlangan.

Bandlik ko'rsatkichlari bo'yicha olib borilgan tahlil eksportning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yanada yaqqol ko'rsatadi. Eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda band bo'lgan ishchi kuchi umumiy bandlikning 20–25 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, eksport bilan bog'liq tarmoqlarda mehnat unumdorligi ichki bozorga yo'naltirilgan tarmoqlarga nisbatan o'rtacha 25–30 foizga yuqori ekanligi kuzatildi. Bu holat eksport faoliyatining nafaqat ish o'rinlari yaratish, balki ularning sifatini oshirishdagi rolini ham ko'rsatadi.

To'lov balansi ko'rsatkichlari tahlili eksportning makroiqtisodiy barqarorlikdagi o'rni tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, eksport hajmi import hajmidan yuqori bo'lgan davrlarda joriy hisob taqchilligi sezilarli darajada qisqargan yoki profitsit shakllangan. Xususan, eksportning 1 milliard AQSh dollariga oshishi joriy hisob taqchilligini o'rtacha 0,6–0,7 milliard dollarga kamaytirgan. Bu esa eksport tushumlarining tashqi savdo muvozanatini ta'minlashdagi ahamiyatini ko'rsatadi [10].

Valyuta bozoriga ta'sir nuqtayi nazaridan ham eksport muhim barqarorlashtiruvchi omil hisoblanadi. Eksport tushumlarining ortishi milliy valyuta taklifini ko'paytirib, almashuv kursining keskin tebranishlarini yumshatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, eksport tushumlari barqaror bo'lgan yillarda milliy valyuta kursining yillik o'zgarishi 5–8 foizdan oshmagan. Aksincha, eksport hajmi qisqargan davrlarda valyuta kursining o'zgaruvchanligi 15–20 foizgacha yetgan.

Eksport tarkibi bo'yicha o'tkazilgan tahlil alohida e'tiborga loyiq. Natijalar shuni ko'rsatadiki, xomashyo eksporti ulushi yuqori bo'lgan iqtisodiyotlar tashqi narxlar konyunkturasiga kuchli darajada bog'liq bo'ladi. Jahon bozorida xomashyo narxlarining 10 foizga pasayishi umumiy eksport daromadlarining 7–8 foizga qisqarishiga olib kelgan. Shu bilan birga, qayta ishlangan va sanoat mahsulotlari ulushi yuqori bo'lgan eksport tuzilmasi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlagan va daromadlar tebranishini kamaytirgan (1-rasm).



1-rasm. Eksport tarkibi, foizda [11]



O'zbekiston iqtisodiyoti misolida o'tkazilgan tahlil ham ushbu xulosalarni tasdiqlaydi. So'nggi yillarda eksport hajmining oshishi sanoat ishlab chiqarishi, bandlik va budget tushumlarining ko'payishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, mashinasozlik, kimyo va to'qimachilik mahsulotlari eksportining kengayishi yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkonini berdi. Natijada eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi bosqichma-bosqich ortib bordi (1-jadval).

1-jadval. Eksport hajmining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri [12]

Ko'rsatkichlar	Eksport past darajada ($\leq 20\%$)	Eksport o'rtacha (20–35%)	Eksport yuqori ($\geq 35\%$)
YaIM o'sish sur'ati (%)	2,5	4,2	6,1
Bandlik o'sishi (%)	1,8	3,5	5,0
Joriy hisob holati	Taqchillik	Muvozanat	Profitsit
Valyuta kursi barqarorligi	Past	O'rtacha	Yuqori
Inflyatsiya darajasi (%)	10–12	7–9	5–6

Jadval ma'lumotlari eksport hajmi va makroiqtisodiy barqarorlik o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Eksport ulushi past bo'lgan iqtisodiyotlarda YaIM o'sish sur'atlari nisbatan sekin bo'lib, o'rtacha 2,5 foizni tashkil etadi. Bunday sharoitda bandlikning o'sishi ham past bo'lib, joriy hisobda doimiy taqchillik kuzatiladi. Bu holat milliy valyuta kursining beqarorlashuvi va inflyatsiya darajasining yuqori bo'lishiga olib keladi.

Eksport ulushi o'rtacha darajada bo'lgan mamlakatlarda iqtisodiy ko'rsatkichlar nisbatan yaxshilanadi. YaIM o'sish sur'atlari 4,2 foizga yetib, bandlik o'sishi sezilarli darajada tezlashadi. Joriy hisob muvozanatlashib, inflyatsiya bosimi kamayadi. Eng ijobiy natijalar eksport ulushi yuqori bo'lgan iqtisodiyotlarda kuzatiladi. Bu holatda iqtisodiy o'sish 6 foizdan yuqori bo'lib, bandlik kengayadi, joriy hisob profitsiti shakllanadi va valyuta barqarorligi ta'minlanadi. Natijalar eksportning makroiqtisodiy barqarorlikdagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlil natijalari eksportning makroiqtisodiy ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Eksport iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, bandlikni kengaytiradi, to'lov balansini muvozanatlashtiradi va valyuta barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, eksportning ijobiy ta'siri uning nafaqat hajmiga, balki tarkibi va barqarorligiga ham bevosita bog'liq ekani aniqlangan. Bu esa eksportni rivojlantirish siyosatida tarkibiy va institutsional yondashuvlarning muhimligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari tashqi savdoda eksportning makroiqtisodiy ahamiyati nihoyatda yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Eksport mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashuv darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, u yalpi ichki mahsulot o'sishi, bandlik kengayishi, valyuta tushumlari shakllanishi va to'lov balansi barqarorligida muhim rol o'ynaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, eksport hajmining barqaror o'sishi iqtisodiy faollikni kuchaytirib, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

Tadqiqot davomida eksport va YaIM o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Eksport ulushi yuqori bo'lgan iqtisodiyotlarda o'sish sur'atlari nisbatan barqaror va yuqori bo'lib, iqtisodiy inqirozlarning salbiy ta'siri kamroq seziladi. Shu bilan birga, eksport bandlik darajasini oshirish va mehnat unumdorligini yaxshilash orqali aholi daromadlarining ko'payishiga xizmat qiladi. Eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarda yaratilgan ish o'rinlari sifat jihatidan ham ustun bo'lib, bu ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Tahlil natijalari eksportning to'lov balansi va valyuta barqarorligiga ijobiy ta'sirini ham ko'rsatdi. Eksport tushumlarining yetarli bo'lishi importni moliyalashtirish imkonini kengaytiradi, tashqi qarzlarga qaramlikni kamaytiradi va milliy valyuta kursining keskin tebranishlarini jilovlaydi. Shu bilan birga, eksport tarkibining diversifikatsiyalangan bo'lishi tashqi iqtisodiy xatarlarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xomashyo eksportiga haddan tashqari tayanish iqtisodiy beqarorlikni kuchaytirishi mumkinligi tadqiqot davomida yana bir bor tasdiqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. London: W. Strahan and T. Cadell, 1776. 950 p.
- Ricardo D. On the Principles of Political Economy and Taxation. London: John Murray, 1817. 589 p.
- Krugman P., Obstfeld M. International Economics: Theory and Policy. 10th ed. Boston: Pearson Education, 2018. 800 p.
- Heckscher E., Ohlin B. Interregional and International Trade. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1933. 356 p.



5. Balassa B. Exports and Economic Growth: Further Evidence // Journal of Development Economics. 1978. Vol. 5, No. 2. P. 181–189.
6. Grossman G.M., Helpman E. Innovation and Growth in the Global Economy. Cambridge, MA: MIT Press, 1991. 359 p.
7. World Bank. World Development Report. Washington, DC: World Bank Publications, turli yillar.
8. International Monetary Fund. Balance of Payments Statistics Yearbook. Washington, DC: IMF, turli yillar.
9. United Nations. International Trade Statistics Yearbook. New York: United Nations Publications, turli yillar.
10. Todaro M.P., Smith S.C. Economic Development. 13th ed. Harlow: Pearson Education, 2020. 896 p.
11. Krugman P. Geography and Trade. Cambridge, MA: MIT Press, 1991. 156 p.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Tashqi savdo statistik ma'lumotlari.
13. Xayrullayevich, A.S.(2025). O'ZBEKISTONNING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA KICHIK VA O 'RTA BIZNESNING ROLI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (11), 675-685
14. Abdivaliyev, S. (2025). Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to 'siqlarni bartaraf qilish choralari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 3(4).
15. Abdivaliyev, S. (2025). THE IMPACT OF INTERNATIONAL TRADE ORGANIZATIONS AND FINANCIAL INSTITUTIONS ON GLOBAL ECONOMY. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 4(1), 71-75.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>